



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YANGI KONSTITUTSIYASI – TARAQQIYOTIMIZ VA FAROVONLIGIMIZ KAFOLATI.

Baxodirjonov Moxirbek Ilhomjon O'g'li

Namangan Davlat Universiteti

Yuridik fakulteti talabasi

Akayeva Marapat Abduhalikovna

Ilmiy rahbar : Namangan Davlat Universiteti

Davlat huquqi va boshqaruvi kafedrasi mudiri

Yuridik fanlar nomzodi: Dotsent

Annotatsiya: *Maqolada Konstitutsiya davlat va xalq manfaatlarini ta'minlaydigan, inson sha'ni va qadr qimmatini yuksak darajaga olib chiqadigan, davlat suverenitetini, uning boshqaruv organlari faoliyatini tartibga soladigan, demokratiya, birdamlik, erkinlik va tenglik kabi g'oyalarga asoslangan davlat qurish borasida qilinishi kerak bo'lgan ishlarni belgilab beradigan, mamlakat aholisini ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlaydigan va ularning himoyasini kafolatlaydigan, qolaversa davlatimiz hududidagi tabiiy boyliklarni, madaniy meroslar hamda atrof muhitga keltirilayotgan zararlarni bartaraf qilishni ta'minlash xususidagi davlatning eng oliy yuridik hujjat deb e'tirof etilishi haqida fikrlar mavjud.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, preambula, suverenitet, hokimiyat, demokratiya, huquq va erkinliklar, davlat, statistika, me'moriy obidalar, ijtimoiy ta'minot, strategiya, referendum, mafkura.*

КОНСТИТУЦИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН – ГАРАНТИЯ НАШЕГО РАЗВИТИЯ И ПРОЦВЕТЕНИЯ.

Абстрактный: *В статье Конституция обеспечивает интересы государства и народа, поднимает на высокий уровень ценность человеческого достоинства и ценности, регулирует суверенитет государства, деятельность его органов управления, строит государство на основе идей, такие как демократия, единство, свобода и равенство. Мнения о признании высшим правовым документом государства, определяющим деятельность, социально поддерживающим население страны и гарантирующим его защиту, а также обеспечивающим ликвидацию природных ресурсов, культурного наследия и ущерба причинения вреда окружающей среде на территории нашей страны.*

Ключевые слова: *Конституция, преамбула, суверенитет, власть, демократия, права и свободы, государство, статистика, памятники архитектуры, социальное обеспечение, стратегия, референдум, идеология.*



THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IS A GUARANTEE OF OUR DEVELOPMENT AND PROSPERITY.

Abstract: *In the article, the Constitution ensures the interests of the state and the people, raises the value of human dignity and worth to a high level, regulates the sovereignty of the state, the activities of its governing bodies, and builds a state based on ideas such as democracy, unity, freedom and equality. Opinions about recognition as the highest legal document of the state, which determines the activities, socially supports the country's population and guarantees their protection, and also ensures the elimination of natural resources, cultural heritage and damage caused to the environment in the territory of our country. there is.*

Key words: *Constitution, preamble, sovereignty, power, democracy, rights and freedoms, state, statistics, architectural monuments, social security, strategy, referendum, ideology.*

Adabiyotlar va metodlar

Maqolani tayyorlashda internet tarmog'idagi xalqaro jurnal manbaalari va ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaning yaratilishiga bo'lgan zarurat hamda uning ahamiyati, davlat va jamiyat hayotidagi roli haqida bir so'z yuritiladi.

Ilmiy maqolani tayyorlashda umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy – huquqiy tahlil, statistik va amaliyot materiallarini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

Muhokama va natija:

Hozirgi kunda konstitutsiyani davlatsiz, davlatni esa konstitutsiyasiz tasavvur qilish imkonsiz. Konstitutsiya **lotincha: *constitutio*** – “Tuzilish”, “tuzuk” degan ma'nolarni anglatadi. Konstitutsiya davlatchilik belgisi sanaladi. Konstitutsiya – davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Bir – biridan farqlanuvchi **yuridik va haqiqiy** (faktik) konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik Konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma'lum huquqiy normalar tizimi deyilsa, haqiqiy konstitutsiya esa – shunday munosabatlarning o'zi, ya'ni real mavjud munosabatlar hisoblanadi.

Mamalakatimiz Konstitutsiyasi bevosita davlat va xalqning manfaatlarini, ularning huquq va erkinliklari, davlatning boshqaruv organlari tartibi uning tashqi siyosat borasidagi ahamiyatli tashviqotlari hamda fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, ularning burchlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, qolaversa, ekologik huquqlarining hamda soliq va boshqa mahalliy yig'implari borasidagi huquq va majburiyatlarining kafolatlarining asosiy manbasi hisolanadi. Konstitutsiya atamasi



ilk bor 1787 – yilda **Amerika Qo'shma Shtatlarida** qabul qilingan huquqiy yuridik hujjat misolida namoyon bo'ladi.⁷⁶

Konstitutsiya – davlatning oliy kuchga ega qonuni, hisoblaning davlatning boshqa barcha qonunlari, president farmonlari, farmoyishlari, qonunosti hujjatlar hamda normative – huquqiy hujjatlar uning asosida qabul qilinadi. Konstitutsiya – davlatchilikning, qonuniylikning hamda huquq tartibotning asosi sifatida e'tirof etiladi. Ozbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining: **«Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro' – e'tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir»**⁷⁷ – degan so'zlari nafaqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga balki, umuman Konstitutsiyalar uchun berilgan eng to'g'ri bahodir.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng xalq uchun davlat uchun yangi konstitutsiya ishlab chiqish g'oyasi vujudga kelgandi. Mustaqillik uchun qo'yilgan shaxdam qadam sifatida e'tirof etiladigan, 1990 – yil 20 – iyunda qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi Konstitutsiya yaratish uchun asos bo'ldi desam mubolag'a bo'lmaydi. Zotan, Deklaratsiya qabul qilingan Oliy Kengash sessiyasida hu hujjat prinsiplari asosida yangi Konstitutsiya ishlab chiqish zarur, degan hulosaga kelingani ham bejis emas. Shu boisdan Davlatimizning birinchi prezidenti Islom Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat konstitutsiya lohiyasini tayyorlash uchun komissiya tuzildi. Komissiya a'zolari sifatida deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar, Toshkent shaxri vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar, xo'jalik raxbarlari, taniqli huquqshunos olimlar, va mutaxassislar tanlab olindi. Davlatimiz rahbarining **“Islom Abdug'aniyevich Karimov rahbarligida 1990 – yil iyun oyida tuzilgan komissiyaning ikki yillik mashaqqatli mehnati natijasida Konstitutsiyaning birinchi, ikkinchi so'ngra uchunchi loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu komissiya a'zosi sifatida men ham ushbu tarixiy jarayonda ishtirok etganimni doimo faxr bilan eslayman. Konstitutsiyaning yaratilishi bilan bo'g'liq qizg'in bahs – munozaralar, turli g'oya va fikrlar hali ham hotiramda”** deya bergan ta'ri fi Konstitutsiyaviy komissiyaning faoliyati haqida yanaqa yaqqolroq tasavvur hosil qiladi.⁷⁸

Sizga ma'lumki **2023 – yil 30 – aprel** kuni mamlakat hayotida, qonunchilik sohasida yana bir katta muvaffaqiyatli, qolaversa, keng ko'lamli hodisa sodir bo'ldi. Ya'ni **Referendum** orqali, umumxalq ovozi asosida O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu hodisa davlat mustaqil deb tan olingandan beri birinchi marta sodir bo'ldi. Yangi taxrirdagi konstitutsiya qabul qilinishi orqali Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy – huquqiy asoslari yaratilib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Yangi

⁷⁶ O.T.Husanov – Konstitutsiyaviy huquq darslik “Yuridik adabiyotlar publish”© 2020 23-bet.

⁷⁷ I.A.Karimov – Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T: “O'zbekiston” 1996, 93-bet

⁷⁸ Sh.M.Mirziyoyev – Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. “O'zbekiston” 2018 5-bet.



tahrirdagi Konstitutsiyani ishlab chiqish va qabul qilish masalasida umumxalq muhokamasi va referendumning o'tkazilishi har bir fuqaroga mamlakat **siyosiy tuzilmasini** yanada rivojlantirishga **shaxsiy hissasini, inson, jamiyat va davlat** o'rtasidagi munosabatlarning mutlaqo yangi tizimiga ovoz berishini ta'minlagan demokratiya namunasi bo'ldi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan inson huquqlarini himoya qilishning kafolatlari va mexanizmlari eng yuqori darajada – Asosiy qonun darajasida kuchaytirildi. Zero, Yangi O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini faqat tan olishnigina emas, balki ularga rioya qilish va ularni himoya qilish asoslarini ham kuchaytirish maqsad qilib qo'yilgan.

Shunday qilib, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – oliy yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy qonun bo'lib, inson qadri hamda huquq va erkinliklarini ta'minlashning eng muhim, ustuvor kafolatlarini belgiladi. Shuningdek, Konstitutsiya jahonning ko'plab tillariga tarjima qilinadigan hujjat sifatida Yangi O'zbekistonni jahon xalqlariga inson qadri va manfaatlarini himoya qiladigan, adolatli, ilg'or davlat sifatida tanitadi.

Albatta, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning normalari mamlakatimizda islohotlarni yanada jadal sur'atlar bilan davom ettirishni, bu yo'lda jamiyatning barcha ilg'or kuchlarini safarbar etishning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.⁷⁹

Xulosa qilib aytganda, har bir mamlakat Konstitutsiyasiga xos eng asosiy xususiyat bu – konstitutsiyaning asosiy qonunligidir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov «Qonuniylik va huquq – tartibot tantana qilmasa, Shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va ma'suliyat ustuvor bo'lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur qilib bo'lmaydi » deb konstitutsiyaning oliy yuridik hujjat ekanligiga aniq ta'rif bergan.⁸⁰

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi
2. O.T.Husanov – Konstitutsiyaviy huquq darslik “Yuridik adabiyotlar publish”© 2020
3. I.A.Karimov – Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T: “O'zbekiston” 1996,
4. Sh.M.Mirziyoyev – Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. “O'zbekiston” 2018
5. O'.Ochilov -Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bo'lim boshlig'I nutqi.
6. I.A.Karimov – O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li T: “O'zbekiston” 1992,

⁷⁹ O'.Ochilov -Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bo'lim boshlig'I nutqidand.

⁸⁰ I.A.Karimov – O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li T: “O'zbekiston” 1992, 17-bet



7. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMiy JURNALI. 7 – TOM 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL. 203-207

<http://www.bestpublication.org/>

8. Саидсакoв Саидахрoр Саидакрoвич. ЭМОТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ И КАТЕГОРИЯ ЭМОТИВНОСТИ. 7 – ТОМ 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL. <http://www.bestpublication.org/>. 198-202

9. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ЯНГИ ЎЗБЕКISTОН-III РЕНЕСАНСИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ИЖТИМОЙ ҲИМОЯСИ. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS 13 (2), 90-94